



IJODKOR
O'QITUVCHI

ТВОРЧЕСКИЙ
УЧИТЕЛЬ

CREATIVE
TEACHER





«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

IJODKOR O'QITUVCHI
ILMIY-USLUBIY JURNAL

MATERIALLARI TO'PLAMI

5-SENTYABR, 2022-YIL

21-SON



INDEX  COPERNICUS
I N T E R N A T I O N A L

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

doi® digital object
identifier


Google
Scholar

 **CYBERLENINKA**

Ushbu to'plamda "Ijodkor o'qituvchi" ilmiy-uslubiy jurnaliga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich

Mas'ul muharrir:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li

Mas'ul kotib

Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li

*Marg'ilon shahar 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari***Nashrga tayyorlovchi**

Sobirov Otabek Foziljon o'g'li

Qobilova Saidaxon Muhammadjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Mo'minov Qobiljon Qodirovich

Fizika-matematika fanlari doktori professor

Sultonali Mannopov

O'zbekiston xalq artisti, professor

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari***nomzodi, dotsent***

Nikadambayeva Hilola Batirovna

Uzbekiston jurnalistika va ommaviy***kommunikatsiyalar universiteti, Pedagogika fanlari******nomzodi, dotsent***

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari***nomzodi, Dotsent***

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Aslanov Xakimjon Ro'ziboyevich

FarDU, Harbiy ta'lim fakulteti Umumqo'shin***tayyorgarligi sikli boshlig'i, podpolkovnik***

Karimov O'Imasbek Umaraliyevich

FarDU o'qituvchisi

Solijonov Muhammadjon Zokirjon o'g'li

Qo'qon DPI, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa***doktori (PhD)***

Imomqulov Tulkin Burhonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot***fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Isakova SHoxidaxon Ikramovna

Qo'qon DPI, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.***Xorijiy tillar fakulteti. Fakultetlararo******chet tili kafedrası***

MUNDARIJA

Абдуллаев Шахбоз Солижон ўғли ИНФОРМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ	9
Azimjon Musamukhamedov Djamalidinovich Nasiba Muxtorova Shuxratovna WESTMINSTER INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT	12
Норова Шоира Умрзаковна РОЛЬ ВНЕШКОЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ	18
Ruziyev Davron Yuldashevich ORKESTR IJROSI UCHUN ASARLAR TANLASH VA ULARNI O'RGATISH JARAYONLARINI LOYIHALASH	24
To'xtasin Rajabov UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	29
Ф.Э.Хўжаёров С.У.Арзиев ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ ИСТЕЪМОЛЧИЛАРИ ТИЗМИДАГИ ЭНЕРГИЯ ИСРОФИНИ КАМАЙТИРИШ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ	40
Shokiraliyev Asliddin Jamoliddin o'g'li O'ZBEKISTONDA MILLIYLIKNI SAQLAB QOLISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI VA JAMIYATDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR	45
Alqorov Qodir Xolmatovich KOMPITENSIYAVIY YONDOSHUV ASOSIDA FIZIKADA ELEKTRODINAMIKANI FANLARARO O'QITISH	49
Бердикул Тўрақулович Тўйчиев, Хайридинов Аббосхон Анварович ОММАВИЙ МАДАНИЯТ ХУРУЖИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИМИЗ ЎРНИ.	51
Khodjaeva Mutabar Hamidulla qizi, Raximova Roza Ozod qizi MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI O'TKAZISH TARTIBI	57
Toshtemirova Muhlis Davronbek qizi, Sayfullayeva Nigora Fayzullo qizi Shokirov Humoyiddin Baxriddin o'g'li O'ZBEKISTONNING TIJORAT BANKLARIDA TASHQI AUDITNI O'TKAZISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH	63
Khodjimatrova (Fakhrutdinova) Albina Askarovna “TEACHING ENGLISH REMOTELY: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES”	68
O'rinova Gulnoza Boboxonovna BOLAGA YAQIN MAQSADNI TANLASH VA UNGA ERISHISHNI O'RGATISH	73
Ilimbayev Sardor G'AFUR G'ULOMNING “NETAY” QISSASIDA IJTIMOY DAVR TA'SIRI	75
Д.А.Халилов, Д.И.Ғуломова ВИДЕО ВА АУДИО МАЪЛУМОТЛАРГА АТ ИШЛОВ БЕРИШ УСУЛ ВА ВОСИТАЛАРИ	78
Boytumanova Shodiya Anvarjon qizi IMKONIYATI CHEKLANGAN O'SMIRLARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	84
Nurabullayeva Kamila Joldasbayevna KADRLARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH VA BOSHQARISHNING TEORIYALIK ASOSLARI	88
Karimova Zumradxon Isroildjonovna	91

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

To'xtasin Rajabov

*Buxoro davlat universiteti musiqa ta'limi kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

Annotatsiya: Maqolada musiqa madaniyati darslarida o'tiladigan o'zbek musiqa folklor qo'shiqlarini o'rgatish uchun qo'llaniladigan usul va metodlar olib boriladigan dars jarayonining samaradorligi, o'quvchilariga xos xususiyatlarini belgilab olish, qo'shiqlardan foydalanilgan turli musiqiy janrlarni maqsadli o'rganish orqali o'quvchilarga beriladigan tarbiyaviy ahamiyati, ma'naviy-axloqiy hislari, qarashlari va ishonchini tarbiyalashga erishish, musiqa darslarida qo'shiqlarni o'rgatish orqali o'quvchilarning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun amalga oshiriladigan ishlar, o'quvchilarga folklor qo'shiqlarini o'rgatish orqali berilishi mumkin bo'lgan ta'lim-tarbiyaning ko'lamini, darajasi, mazmuni va imkoniyatlarini aniqlab olish qay tarzda rejalashtirish lozimligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: psixologiy, folklor qo'shiqlari, ohang, ritm, usul, metod, ta'lim va tarbiya, o'rgatish jarayonining samaradorligi, ma'naviy-axloqiy, musiqa madaniyati darsi.

Аннотация: В статье описывается эффективность учебного процесса, методы и приемы, используемые для обучения узбекским фольклорным песням на уроках музыкальной культуры в системе непрерывного образования, для определения характеристик учащихся, воспитания у учащихся духовно-нравственных чувств, взглядов и убеждений через целенаправленное изучение различных музыкальных жанров. Работа по определению уровня сформированности учащихся посредством преподавания песен в классе, определение объема, уровня, содержания и возможностей обучения, которые могут быть предоставлены учащимся в процессе обучения детских народных песен, эффективность процесса обучения детским народным песням. Это решение является уникальным этапом практического изучения, ознакомления с содержанием научных и методических источников, вопросов и ответов, созданных в этой области, и разработки теоретических идей.

Ключевые слова: психология, фольклорные песни, мелодия, ритм, метод, обучение и воспитание, эффективность учебного процесса, духовно-этический, урок музыкальной культуры.

Abstract: The article describes the effectiveness of the teaching process, methods and techniques used to teach Uzbek folk songs in music culture classes in the system of continuous education, to determine the characteristics of students, to cultivate students' spiritual and moral feelings, attitudes and beliefs through targeted study of different musical genres. The work to determine the level of formation of students through the teaching of songs in the classroom, how to plan to determine the scope, level, content and opportunities of education that can be given to students through the teaching of children's folk songs, the effectiveness of the process of teaching children's folk songs. This solution is a unique stage in the practical study, acquaintance with the content of scientific and methodological sources,

questions and answers created in this field, and the development of theoretical ideas. to what extent it is proven in practice.

Key words: *psixolog, folk songs, melody, rhythm, method, method, education and upbringing, the effectiveness of the teaching process, spiritual-ethical, music culture lesson.*

Dunyo miqyosida kuzatilayotgan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay muhit yaratayotgan bir davrda jamiyat hayotida milliy ma'naviyat, madaniyat va san'at, miliy o'zlikni namoyon qilish murakkab ijtimoiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Musiqiy ta'limda o'zbek milliy musiqasining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. SHu ma'noda musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'zbek madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan taniqli san'atkorlarning pedagogik merosidan to'laqonli foydalanish, ajdodlarimizning madaniy meroslarini, ular ilgari surgan pedagogik g'oyalar va qarashlarini bugungi ta'lim tizimiga tatbiq etish, ta'lim mazmunini boyitish hamda milliy asosni mustahkamlash masalalarini dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Mustaqil Respublikamizning barcha sohalaridagi rivojlanishi jahonning ilg'or mamlakatlarida qo'llanilayotgan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy va madaniy merosidan oqilona foydalanish ko'lamini va sifatiga ham bog'liq. Bu meroslar tizimida badiiy-musiqiy qadriyatlar ham o'z o'rniga va nufuziga ega. Zero u millatning, jamiyatning milliy mafkurasini shakllantiruvchi tarbiyaviy quroldir.

Albatta, eski mafkuradan tezda qutilish, yangisini tezda ishlab chiqish va jamiyat hayotining barcha jabhasiga singdirish engil ish emas. Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qo'shiq va musiqaning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati kattaligi ko'plab dalillar yordamida ko'rsatib berilgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, shaxsning kamol topishida uning dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqi, madaniyatlilik darajasi, his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi. Axloqiy tarbiyada san'at va adabiyotning buyuk roli insonning butun hayoti jarayonida davom etadi. Bu o'rinda san'atni biror maktab predmeti, biror darslik bilan almashtirib bo'lmaydi. O'quvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish bevosita musiqa, uning eng sharqona janri bo'lgan xalq qo'shiqlari orqali muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Ma'naviy-axloqiy me'yorlarni o'quvchi yoshlarga singdirish uchun, eng avvalo, ularni ma'naviy-axloqiy tushunchalar bilan tanishtirish lozim bo'ladi. Faylasuf hamda pedagog olimlar fikriga tayanib, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

- 1) ma'naviy-axloqiy tushunchalarni bayon qilish;
- 2) ma'naviy-axloqiy fikr yuritish;
- 3) ma'naviy-axloqiy xulosalar chiqarish va bu xislatlarni odat tusiga kiritish.

Ma'naviy-axloqiy me'yorlar saxiylik, oqko'ngillilik, yaxshilik, hurmat, xayrixohlik, ma'suliyatlilik, mehnatsevarlik kabi atamalarning mazmunini bilib olish, o'z faoliyatida unga amal qilishni anglatadi.

Forobiy musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablar xususida yozar ekan, musiqaning axloqiy tarbiyaviy jihatlariga diqqatni jalb etadi. «Bu ilm shu ma'noda foydaliki,-deb yozadi u

«Ixxo al-ulum» asarida-u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. SHuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga solinishi va substansiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi»

Ma'naviy-axloqiy tushunchalarning mohiyatini aniq his qilish uchun u yoki bu holatda barcha unga amal qilishi hamda uning natijasi qanday yakun topganligini sinchkovlik bilan kuzatib, fikr yuritishi va o'zining shaxsiy xulosasini chiqarib olishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy me'yorlarni ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa, musiqa ta'limi katta imkoniyatlarga ega.

Ma'naviy-axloqiy me'yorlar ko'p bor sinovdan o'tkazilgandagina barqarorlik kasb etadi va u kishining haqiqiy tayanchi sifatida uning hayotiy xatti-harakatlariga turtki beradi. Uning qay holatda qanday ish tutish kerakligini aniq ko'rsatadi.

Xalq qo'shiqlarida berilgan fikrlar va ohanglarda qaror topgan da'vatlar, nasihatlar, ko'rsatmalar uning asrlar davomida o'ttiran tajribasi natijasida qayta tekshirilib, sayqal topib kelgan hayotiy xulosalari mahsulidir. Xalqning har bir aytgan gapi «o'q» va uni uqib olmagan kishi hayotda pand eyishi tabiiydir.

Ma'naviy-axloqiy tushunchalarni bilib olish kundalik turmushda sodir bo'ladigan turli voqealar va psixologik holatlarga taqqoslab ko'rish natijasida mukammal shakllangan odatlar, ko'nikma va malakalar hosil bo'la boshlaydi.

O'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazgan davri davomida sinf, maktab jamoasi, oila, mahallada o'z o'rnini topa olishida musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi. Aniq mazmun asosida o'tkaziladigan musiqa darslari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va umumiy tarzdagi musiqiy muhit o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa darslarining haqiqiy ta'lim-tarbiya vositasiga aylanishida o'qituvchisining bilimi, iqtidori, jonkuyarligi, targ'ibotchiligi, mehribonligi, maslahatgo'yiligi etakchi ahamiyatga ega. Musiqaning buyuk qudrati shundaki, u o'quvchining ichki dunyosiga kirib, hissiyotlarini junbushga keltira oladi. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, musiqa inson bosh miyasining yarim sharlaridagi asab to'rlarining eng yirik, eng nozik, boshqa hech qanday vosita ta'sir etolmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Bu qatlamlarda insonning juda katta quvvati zahiralarini saqlanadi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralarini harakatga keltira oladi. Qo'shiqchilik haqida tarix fanlari doktori Hojiakbar Xamidov quyidagilarni bayon qiladi: «Qo'shiqchilik o'zbeklar ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy hayotining muhim bo'g'ini bo'lib,...(u) xalqning ma'naviy ehtiyojini qondiribgina qolmay, balki ularda kishilarning mavjud ijtimoiy tuzum, xususan, xonlar va boylarga, davlat tuzilmalariga, hayot og'irliklariga nisbatan qarashlari ham o'z ifodasini topardi. Ayni paytda qo'shiqlar kishilarning kundalik turmush tarzi ham edi. Qo'shiqlar kishilarni yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi vosita sifatida ham obro'-e'tibor qozondi. Ular to'ylar, yirik marosimlar, xalq sayllari va bayramlarining zaruriy qismiga aylangan edi. Ularda kishilar ruhiy holatda chuqur o'zgarishlar yasashga qodir kuch sifatida o'z ijtimoiy qadrini oshirib bordi»

Musiqaning san'atining o'ziga xos shunday qudrati borki, bu boshqa hech qanday predmed yoki san'at turlarida mavjud emas. Bu insonga kuchli ta'sir eta oluvchi «qurollar» zahirasida musiqaning san'atining o'ziga xos kasbiy xususiyatlari, vositalar «arsenal»ida tovush tembri (bo'yog'i), tovushlar baland-pastligi, ritm (usul) xilma-xilligi, garmoniyaning tuzilishlari, interval va akkordlar tuzilishidagi rang-baranglik, dinamik tus va boshqalar insonni his-hayajonga soladigan, uning tuyg'ulari olamida mo'jizalar yaratadigan beqiyos ta'sir vositasidir. O'quvchi shaxsining shakllanishi va kamol topishida musiqaning, ayniqsa xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlarining silsilasidan yaralgan xalq qo'shiqlarining tutgan o'rni beqiyosdir.

Xalq qo'shiqlari o'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib qon-qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari va boshqa milliy bezaklarini tinglagan odam unga befarq bo'la olmaydi, bevosita unga ergashadi, qo'shilishib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqani uni o'zining sehrli olamiga etaklab ketadi. Xalq qo'shiqlari faqat estetik joziba olami bo'libgina qolmay o'ziga xos katta bir ta'lim-tarbiya quroli hamdir. Chunki inson his-hayajonining zahirida ma'naviy-axloqiy tushunchalar, hislar, xulosalar ham yotadi. Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy musiqaning xilma-xilligi inson ma'naviy ehtiyojlarining ifodasi ekanligini, ikkinchidan, estetik lazzat va huzur orqali inson, o'z navbatida, ma'naviy barkamol bo'lishini ta'kidlaydi. Musiqaning misolida Jomiy e'tirof etadiki, «Ruhga lazzat biror narsani tushunib, bilib olmoqdan keladi. Nimaiki ruh tomonidan tez idrok etilsa va uni hayratga, chuqur o'ylashga majbur etsa, u eng lazzatli hisoblanadi» Psixologiya va pedagogika bo'yicha chop etilgan adabiyotlarda milliy musiqaning xalqning katta tarbiyaviy ahamiyatga ega mulki ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bizning nazarimizda, inson ongida vujudga kelib, shakllanib, taraqqiy etayotgan ma'naviy-ruhiy qadriyatlar o'quvchilar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning yangidan yangi ma'naviy ehtiyojlari paydo bo'ladi. SHu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa o'quvchida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Bu harakat bolaning o'quvchilik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mavzu jihatidan turlicha bo'lgan bolalarbop xalq qo'shiqlarini muntazam ravishda o'rganib borish, ijro etish maktab o'quvchilarining nafaqat repertuarini boyita boradi, balki ularning milliy ma'naviyatimizga bo'lgan muhabbatini oshiradi, umumiy dunyoqarashlarini kengaytiradi va axloqiy tuyg'ularining shakllanishiga yordam beradi. Bu tuyg'ular g'oyat ko'p qirrali va xilma-xildir.

Pedagog olimlarning fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish to'rt asosiy yo'nalish buyicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Vatani va xalqiga bo'lgan muhabbat tuyg'usini tarbiyalash.
2. O'quvchilarning mehnat, kishilar va ular tomonidan yaratilgan ne'matlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish.
3. O'quvchining jamiyat a'zolari, qarindoshlari va uni o'rab turgan tengdoshlariga bo'lgan munosabatini rivojlantirish.
4. Uning shaxs sifatida o'z-o'ziga nisbatan qarashlarini qaror toptiradi.

O'zbek xalqi mustaqillikni qo'lga kiritgach, milliy-ma'naviyatimizning haqiqiy egasiga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri-yosh avlodga ajdodlarimizning asrlar davomida orttirilgan ma'naviy boyliklarini singdirish, ularda insoniy fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatini his etishga o'rgatishdan iboratdir. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'quvchilarning Vatanga, mehnatga, insonlarga bo'lgan muhabbati kabi serqirra manbalari unda ma'naviy ehtiyoj va qiziqish uyg'otishda, ma'naviy faoliyat va qadriyatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, ma'naviy-axloqiy manbalar o'quvchida ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlarini shakllantirish vositasidir.

O'quvchilarning ma'naviy fazilatlari ularning aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy madaniyat kabi ko'pqirrali tarkibiy qismlaridan iborat. Musiqa ta'limi jarayonida ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlari o'quvchi ongiga o'zaro birlik va aloqadorlikda singdiriladi. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarda insonparvarlik, sadoqat, qanoat, mehr-muhabbat, adolatparvarlik, nafosat, e'tiqod, mehnatga ijobiy munosabat, din va bid'atni bir-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqni anglash kabi yuksak ma'naviy fazilatlar shakllanib boradi. Axloqiy fazilat, axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar axloq qoidalarini yordamida o'quvchining hulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarishning o'ziga xos tizimini tashkil qiladi. Axloqiy fazilat o'quvchining ko'pqirrali faoliyati davomida qisman xalq qo'shiqlari vositasida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy fazilatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy fazilatga oid tushunchalardir. Bular o'quv faoliyati jarayonida ma'naviy fazilatlar bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Xalq qo'shiqlari orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish musiqaning boshqa janrlariga nisbatan qulaydir. CHunki xalq qo'shiqlari mazkur xalqning an'analari, rasm-rusumlarini o'zida ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari hayotida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi, ularda musiqaga bo'lgan qiziqish shu yoshlarda nihoyat darajada intensiv kechadi, ularning anchagina vaqtini egallaydi va bu o'z-o'zidan ularning intellektual, estetik va ma'naviy olamini boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning aynan shu musiqani yoqtiradigan, uni sevib o'rganadigan maktab yoshi davrida ularni xalq qo'shiqlarining go'zallik olamiga olib kirish, nolalar, bezaklar, qochirimlar, ijrochilik mahoratlaridan bahramand qilish va ularni o'z ona xalqining musiqa bisotini qadrlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ularning harakatga, fidoiylikka, jonbozlikka, sarguzashtlarga boy hayotini mantiqsiz hayot ishqibozligi, engil-elpi musiqiy ohanglar egallashi mumkin. YOsh avlodning musiqiy qobiliyatini o'stirishda ularning musiqaga bo'lgan qiziqishini shakllantirish va musiqani hissiy qabul qilishga yo'naltirish eng asosiy omil hisoblanadi. Qiziqish, mashg'ullik muammosi-pedagogikaning fundamental muammolaridan biri bo'lib, uning to'g'ri hal qilinishi har qanday fan bo'yicha mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli olib borish uchun muhimdir. Lekin u san'at sohasida alohida ahamiyat kasb etadi, hissiyot va qiziqishsiz qancha kuch va vaqt sarf qilinmasin eng oddiy natijalarga ham erishib bo'lmaydi.

Qiziqish bolalarning ehtiyojiga aylansa, ularning diqqat e'tibori va fikrini jamlashga katta imkon beradi. O'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlarini bilish musiqa ta'limida pedagogik ta'sir ko'rsatishning muhim quroli hisoblanadi. Musiqaga bo'lgan qiziqishning muhim xususiyatini xuddi shu musiqa bilan muloqotga kirishish, uning go'zalligidan bahramand bo'lish orqali o'z ehtiyojini qondirishdan iboratdir.

O'quvchilardagi musiqiy qobiliyatni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:


1. Maxsus qobiliyat-o'quvchilarning musiqa ixtisosligiga bo'lgan qiziqishi, musiqa bilan shug'ullana olish ko'nikmasi. Bunga o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'langan va o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini mujassamlashtiruvchi, ularning musiqiy qobiliyatini belgilovchi, tovushlarning baland-pastligini his qilish, lad va tonallikni seza olish, usul, metr-ritmni aniqlay olish hamda musiqiy xotira (ma'lum musiqa bo'laklarini yoki ritm tizimlarini yodda saqlab, uni qaytadan aytib bera olish qobiliyati) kabilar kiradi.

2. Musiqaga oid estetik qobiliyat-bu, o'z navbatida, musiqiy idrokning ikki muhim qirrasini o'zida mujassamlashtiradi: a) hissiy bilish; b) umumli bilish.

Hissiy idrok har bir o'quvchining musiqaga ta'sirchanligi, go'zalligi, tashbehlarga boyligi, hayotiy voqealarni o'z qamroviga sola olishiga bo'lgan xususiy munosabatidan kelib chiqadi. Umumli bilish musiqani idrok qilish orqali o'quvchining o'zini o'rab turgan muhit va hayot haqida uning uchun yangilik bo'lgan xabar, bilimlarni egallashga erishishdan iborat. O'quvchilarning musiqa asarlaridan oladigan umumli malumotlari to'laqonli, mantiqli, ta'sirchan bo'lishi uchun ular o'zlashtiradigan hissiy ma'lumotlarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Ayni paytda asarning hissiy tafsilotlari bilan o'ralashib qolgan holda unumdorlikka e'tibor bermaslik ham kutilgan natijaga erishmaslikka olib keladi. SHuni hisobga olgan holda o'quvchilarga o'rgatiladigan xalq qo'shiqlarining musiqiy bezagi, undagi nola va qochirimlardan umumli foydalangan holda asarni xalq an'analari, udumlari va turli marosimlar bilan uzviy bog'liq holda o'quvchilarga singdirish lozim.

Xalq qo'shiqlari bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, odamlarga ishonch, do'stlarga sadoqat to'yg'ulari va uning o'z-o'ziga nisbatan talabchanligini shakllantiradi. Xalq qo'shiqlari o'quvchilar uchun ilk tarbiya darsligi, ma'naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir. Bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalari xalqning ming yillar mobaynida yosh avlodni tarbiyalashda xizmat qilib kelgan buyuk pedagogik merosidir. Xalq pedagogikasi xalq, jamoa ijodkorligining mahsuli sifatida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyot bosqichini belgilab beruvchi tayanch manba hisoblanadi. U ko'pqirrali jarayon bo'lib, tarkibiy vositalar, xalq qo'shiqlari (asotir, afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo'shiq, latifa, lof, xalq dramasi, askiya), xalq tasviriy va amaliy san'ati (xalq yaratgan badiiy-estetik san'at namunalari, teatr, musiqa), ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lgan, rivojlangan qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analalar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, amaliy faoliyatdagi ilg'or tajribalar majmuidan iborat. Xalq pedagogikasining asosiy vositasi bo'lgan xalq qo'shiqlari chuqur g'oyaviy ta'sirga ega va u ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga etkazishda muhim vosita hisoblanadi. SHu boisdan, xalq pedagogikasining ayrim masalalari, jumladan, o'zbek folklorshunoslari pedagoglar uchun tadqiqot ob'ektiga aylangan.

Xalq qo'shiqlarining janr xususiyatlari, voqelikka estetik munosabati, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotda tutgan o'rni va taraqqiyot bosqichlari, janrlari, o'zbek folklorshunos olimlari tomonidan tadqiq etilgan.



Xalq qo'shiqlari vositasida 1-7-sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish jarayonini o'rganib chiqish nihoyasida biz ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning konseptual psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqladik:

1. Xalq asarlarining ma'naviy-axloqiy jihatlarini idrok qilish quyidagi uch tamoyil asosida amalga oshiriladi:

- o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tushunchalar hosil qilish;
- asarlarning ma'naviy-axloqiy mazmuni haqida fikr yuritish;
- asarlardagi hayotiy voqelik va holatlarni tahlil qilish orqali xulosalar chiqarish.

2. Amalga oshirilgan kuzatish va o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy shakllantirish, eng avvalo, ularning xalq qo'shiqlariga qiziqishlari, ularni amaliy estetik-axloqiy jihatdan tahlil qila olishlari orqali amalga oshiriladi hamda dars davomida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hissiy holatlardan foydalanish, intellektual ta'sir o'tkazish va musiqiy idrokni kuchaytirish ham o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

3. O'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish jarayonini ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

4. Xalq qo'shiqlari va ular ijrosini baholash o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi lozim.

5. 1-7-sinf o'quvchilar xulqiga ma'naviy-axloqiy me'yorlarni singdirishda ularning uyushqoqligi, maslakdoshligi, birdamligi kabi xislatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

6. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda sinfda yaxshi ijodiy muhit, do'stona munosabat o'rnatish.

7. Bunda repertuar tanlashga alohida e'tibor berish.

8. Musiqa mashg'ulotlarini yuqori saviyada o'tkazish va hokazolar alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ayon bo'ladiki, xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida o'z echimini kutmoqda.

FOYDALANILHAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rajabov T. I. ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzyki i igr // Nauka, obrazovanie i kultura. – 2020. – №. 3 (47).

2. Норова Шоира Умрзаковна ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ УВАЖЕНИЯ К НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТЯМ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ // Наука, техника и образование. 2021. №2-2 (77).

3. Norova Shoira Umurzoqovna. (2021). METHODS OF PERFORMANCE BY MUSICAL INSTRUMENTS. European Scholar Journal, 2(9), 55-56.

4. Norova Shaira Umirzakovna Ways To Improve Learning Efficiency Using Innovative Technologies Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 1. – №. 01. – С. 41-

5. Rajabov, T. I., & Ibodov, U. R. (2020). Obespechenie natsionalnogo naslediya v obuchenii pesnyam buxarskogo detskogo folklora na urokax muzyki. *Vestnik nauki i obrazovaniya*, (21-2 (99)), 55-58.

6. Rajabov, T. I. (2021). O'quvchi-yoshlarga o'zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.

7. Ro'ziyev D.Yu. Musiqa ta'limi texnologiyasining ba'zi masalalari. Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2007-№ 1. b. 57-58.

8. Ro'ziyev D.Yu. Musiqiy ijrochilik mahorati. Pedagogik mahorat. 6-son, 2019. 260-263-b.

9. Ruziev D.Yu. Musical and aesthetic education of the student collective musical-aesthetic education student's team. International Journal on Integrated Education. 01.02.

-balx" i ego mesto v vospitaniy uchaщeysya molodeji." *Rossiya-Uzbekistan. Mejdunarodnyye obrazovatelnyye i sotsialno-kulturnyye texnologii: vektory razvitiya*. 2019.

11. Radjabov T. I. Opisanie vekovykh sennostey v pesne" tutovoe derevo-balx" i ego mesto v vospitaniy uchaщeysya molodeji // *Rossiya-Uzbekistan. Mejdunarodnyye obrazovatelnyye i sotsialno-kulturnyye texnologii: vektory razvitiya*. – 2019. – S. 70-71.

12. Radjabov, Tuxtasin Ibodovich. "Opisanie vekovykh sennostey v pesne" tutovoe derevo-balx" i ego mesto v vospitaniy uchaщeysya molodeji." *Rossiya-Uzbekistan. Mejdunarodnyye obrazovatelnyye i sotsialno-kulturnyye texnologii: vektory razvitiya*. 2019.

13. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. "USOVERSHENSTVOVANIE NAUCHNO-METODICHESKIX VOZMOJNOSTEY OBUCHENIYA BUXARSKIM DETSKIM

FOLKLORNYM PESNYAM V SREDNEY OBIŖEOBRAZOVATELNOY SHKOLE." *Nauka, texnika i obrazovanie* 2-2 (77) (2021): 84-86.

10.Radjabov, Tuxtasin Ibodovich. "Opisanie vekovykh sennostey v pesne" tutovoe derevo

14.Rajabov T. I. O'kuvchi-yoshlarga o'zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 11. – S. 1094-1103.

15.Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //Ijtimoiy Fanlarda Innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 6. – S. 139-145.

16. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. "Pedagogicheskie vozmojnosti ispolzovaniya detskix folklornykh pesen v duxovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov." *Vestnik nauki i obrazovaniya* 5-2 (83) (2020).

17.Rajabov, Tuxtasin Ibodovich, and Uktam Rasulovich Ibodov. "Obespechenie natsionalnogo naslediya v obuchenii pesnyam buxarskogo detskogo folklor na urokax muzyki." *Vestnik nauki i obrazovaniya* 21-2 (99) (2020): 55-58.

18.Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. *Ijtimoiy Fanlarda Innovatsiya onlayn ilmiy jurnali*, 1(6), 139-145.

19.Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. "Pedagogicheskie vozmojnosti ispolzovaniya detskix folklornykh pesen v duxovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov." *Vestnik nauki i obrazovaniya* 5-2 (83) (2020).

20.Rajabov T. I. Pedagogicheskie vozmojnosti ispolzovaniya detskix folklornykh pesen v duxovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 5-2 (83).

21.Rajabov T. I. USOVERSHENSTVOVANIE NAUCHNO-METODICHESKIX VOZMOJNOSTEY OBUCHENIYA BUXARSKIM DETSKIM FOLKLORNYM PESNYAM V SREDNEY OBIŖEOBRAZOVATELNOY SHKOLE //Nauka, texnika i obrazovanie. – 2021. – №. 2-2 (77). – S. 84-86.

22.Rajabov T. I. USOVERSHENSTVOVANIE NAUCHNO-METODICHESKIX VOZMOJNOSTEY OBUCHENIYA BUXARSKIM DETSKIM FOLKLORNYM PESNYAM V SREDNEY OBIŖEOBRAZOVATELNOY SHKOLE //Nauka, texnika i obrazovanie. – 2021. – №. 2-2 (77). – S. 84-86.

23.Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //Ijtimoiy Fanlarda Innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 6. – S. 139-145.

24.Rajabov, To'xtasin Ibodovich. "O'kuvchi-yoshlarga o'zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish." *Science and Education* 2.11 (2021): 1094-1103.

25.Rajabov T. I., Oripov N. O. Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a 25.Dolzarb Methodological Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – S. 409-412.

26.Rajabov, Tokhtasin Ibodovich, and Mahliyo Feruzovna Rutamova. "The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education

is an Urgent Pedagogical Problem." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 404-408.

27. Rajabov T. I. XAQ QO'SHIQLARI ORQALI O'QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH OMILI //Barqarorlik va Etakchi Tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 1. – S. 364-368.

28. Radjabov, Toxtasin Ibodovich i Nigina Odilvna Oripov. «Obuchenie folklornym pesnyam buxarskix detey v sisteme nepreryvnogo obrazovaniya kak dolzarbskaya metodicheskaya problema». *EVROPEYSKIY JURNAL INNOVATSIY V NEFORMALNOM OBRAZOVANII* 2.2 (2022): 409-412.

29. Radjabov T.I. Rutamova M.F. (2022). Formirovanie duxovno-nravstvennykh kachestv uchashixsya cherez narodnye pesni v sisteme nepreryvnogo obrazovaniya yavlyaetsya aktualnoy pedagogicheskoy problemoy. *EVROPEYSKIY JURNAL INNOVATSIY V NEFORMALNOM OBRAZOVANII* ,

30. Radjabov, Toxtasin Ibodovich i Djaxongir Ixtiyorovich Radjabov. «Formirovanie duxovno-nravstvennykh kachestv uchashixsya cherez narodnye pesni – aktualnaya pedagogicheskaya problema». *EVROPEYSKIY JURNAL INNOVATSIY V NEFORMALNOM OBRAZOVANII* 2.1 (2022): 331-335.

31. Radjabov T.I. UZLUKSIZ TALIMDA FOLKLOR KO'SHIKLARINI YDJRO ETISHIXG O'ZIGA XOS USLUBLARI //Nauchnyy progress. – 2021. – T. 1. – №. 5.

32. Radjabov Tokstasin Ibodovich. "UZLUKSIZ TALIMDA FOLKLOR KO'SHIKLARINI YDJRO ETISHIXG OZIGA XOS USLUBLARI." *Nauchnyy progress* 1.5 (2021). Radjabov Tokstasin Ibodovich. "UZLUKSIZ TALIMDA FOLKLOR KO'SHIKLARINI YDJRO ETISHIXG OZIGA XOS USLUBLARI." *Nauchnyy progress* 1.5 (2021).

33. Radjabov T. Vospitatelnoe znachenie narodnykh pesen v nachalnykh klassax //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 1. – №. 01. – S. 72-79.

34. Rajabov, T. I. (2022). XAQ QO'SHIQLARI ORQALI O'QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH OMILI. *Barqarorlik va Etakchi Tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* , 2(1), 364-368.

Shamsiev, Sherzod Istamovich. "The role of folk songs in educating student's role of folk songs in student education."

35. Rajabov, T. I. (2021). O'kuvchi-yoshlarga o'zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.

Ibodov O. MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA XALQ QO'SHIQLARIDAN FOYDALANISH //SENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2021. – T. 6. – №. 6.

36. Rajabov T. I. ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzyki i igr //Nauka, obrazovanie i kultura. – 2020. – №. 3 (47).

37. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. "ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzyki i igr." *Nauka, obrazovanie i kultura* 3 (47) (2020).

38.Rajabov, D. Z., & Rajabov, T. I. (2018). Formirovanie i razvitie uzbekskoy narodnoy liriki. In *Mejdunarodnaya obrazovatel'naya deyatel'nost kak faktor razvitiya i sotrudnichestva vysshix uchebnykh zavedeniy v sovremennom polikulturnom mire* (pp. 207-212).

39.Rajabov T. I. USOVERSHENSTVOVANIE NAUCHNO-METODICHESKIX VOZMOJNOSTEY OBUCHENIYA BUXARSKIM DETSKIM FOLKLORNYM PESNYAM V SREDNEY OBIČEOBRAZOVATELNOY SHKOLE //Nauka, texnika i obrazovanie. – 2021. – №. 2-2 (77). – S. 84-86.

40.Rajabov, To'xtasin Ibodovich. "XAQ QO'SHIQLARI ORQALI O'QUVCHI-YOHLARDA MILLIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH OMILI." *Barqarorlik va Etakchi Tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* 2.1 (2022): 364-368.

Professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag'batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

BOSH MUHARRIR:

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich

MAS'UL MUHARRIR:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li

MAS'UL KOTIB:

Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li

*Marg'ilon shahar 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*